

ERKIN A'ZAM HIKOYALARIDA XARAKTER YARATISH MAHORATI***Raxmatova Xurshida Eshmaxammat qizi****Jizzax davlat pedagogika universiteti**3-kurs talabasi***ANNOTATSIYA**

Maqolada Erkin A'zamning hikoyalarida xarakter yaratish mahorati haqida soʻz yuritilgan. Asarlardagi xarakter tushunchalariga tavsif berilgan. Erkin A'zamning „Bizning togʻa“ hikoyasi misolida xarakter yaratish mahoratini koʻrib chiqamiz. Maqolada biz hikoyadan ibrat olishimiz kerak boʻlgan oʻrinlar taʼkidlab oʻtilgan

ANNOTATION

The article discusses the skill of creating character in Erkin A'zam's stories. The concepts of character in the works are described. We will consider the skill of creating character in Erkin A'zam's story "Our Uncle". The article highlights the places where we should learn from the story.

Kalit soʻzlar: xarakter, "Bizning togʻa", "Hellados", Amir, Jamol, Yanguli, Fitrat, kinoya.

KIRISH

Hech bir yaxshi asar yoʻqki, kitobxonga taʼsir oʻtkazmay qoʻymaydi. Kitob bizga ham ilm, ham tarbiya beradi. Ilm nafaqat bugungi, balki zamonlar osha dolzarb boʻlib kelayotgan masalalardan biridir. Hadisda ham „Beshikdan to qabrgacha ilm izla“ degan daʼvat shundan. Bugun yurtimizda ham taʼlimga juda katta eʼtibor qaratilmoqda. Bunga prezidentimizning "Najot - taʼlimda, najot - tarbiyada, najot - bilimda" [1] deya bot-bot takrorlayotgani ham yorqin misol boʻla oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Erkin A'zam oʻziga xos ijodkor. Kitobxon bu yozuvchining kitoblarini goh horgʻin, goh xursand kayfiyatda oʻqiydi. Chuqur falsafiy mushohadali muammolarga ega qahramonlarning oʻzini tutishi, gap-soʻzi kitobxonga yengil kulgi taqdim etadi. Bir soʻz bilan aytadigan boʻlsak, yozuvchining asarlarida oʻtkir kinoya ufurib turadi. Shu oʻrinda Abdurauf Fitratning "Sanʼat lugʻatda hunar demakdirkim, bir narsani yaxshi ishlab chiqarishdan iboratdir"[2] degan fikrini eslab oʻtsak oʻrinli boʻladi. Jahon adabiyotiga nazar soladigan boʻlsak ham qahramonlar harakteri va gʻoyasi asarning dunyo kezishiga sabab boʻluvchi yetakchi omillardan hisoblanadi. Misol tariqasida Nodar Dumbadzening "Hellados" asarini oladigan boʻlsak, bosh qahramonlardan biri Yanguli yurak-yuraklardan joy olgan obrazdir. Bu qahramon avvaliga kitobxonning nafratiga, soʻng ijobiy fikrlashiga sabab boʻladi. Yakunida esa kitobxonning sevgisiga musharraf boʻladi. Ilk uchrashuvdayoq Jamol uni faqat "koʻcha bezorisi" sifatida

tanigan, keyinchalik "na yaqin, na uzoq" bo'ladi ammo Yangulining "ulg'ayganini" his qilgach uni hurmat qila boshlaydi. Qarangki, Yangulida Jamol ko'rmagan, umuman hech kim payqamagan his-tuyg'ular, jasurlik, mardlik tuyg'ulari bor ekan. Hikoyaning muvaffaqiyati sifatida Yangulining o'ziga xos xarakterli ekanligini ayta olamiz. Negaki, Vatan mehri g'oyasi singdirilgan hikoyalar oz sonli emas.

NATIJA

.Qahramonlarga xarakter yaratish yozuvchidan katta mahorat talab qiladi. Xarakterga tavsif beradigan bo'lsak "Xarakter tasviri asarning mazmunini „badiiy axborot“ga aylantiradi. Xarakterning bir xususiyati bunga xizmat etadi: xarakter hayotiy haqiqatni aniq hissiy shaklda aks ettiradi, ya'ni asar mazmuni xarakter tasviri tufayli hayotiy aniqlik kasb etadi va shu bilan birga bizning hislarimizga ta'sir etish xususiyatiga ega bo'ladi".[3]

Erkin A'zamning asarlarida bir-biriga o'xshamaydigan turlicha xarakterli qahramonlar uchraydi. Yozuvchining "Bizning tog'a" hikoyasida shunday "ajablanarli" qahramon mavjud. Hikoyaning asosiy qahramonlaridan biri - G'azanfar. Yozuvchi bu qahramonga obraz yaratar ekan "supraqoqdisiga mehri bo'lakchamidi, rahmatli bobomiz uni azza-bazza dabdaba otiga mindirib, erinmay, allanechuk maroq bilan nomini juftlab «Muhammad g'azanfar» deb atardi. Bunday sharafiga munosib ko'rilgan farzandga muomala ham, tabiiyki, o'zgacha bo'ladi: kenja bolam, sen je, bolam" kabi tasvirni beradi. "Yuz yoshli ko'hna cholning choponi etagida katta bo'lgan, ana shu yuz yillik hayot tajribasini sabiylik zehniga bamisoli ohanrabo mahkam joylab olgan, yetti yoshdayoq yetmish yashar chollardek salmoq bilan mulohaza yuritadigan bu zumrasha" nafaqat o'z tengqurlariga balki butun urug' aymog'iga bobosi vafotidan keyin bosh-qosh bo'lib qoladi.

Avvaliga kitobxonga buning hech qanday yomon joyi yo'qdek tuyuladi. Ammo kenja tog'aning ba'zi "qilmishi" kitobxonga ham erish tuyuladi. so'ramoqqa majbur. Kechqurun devor-darmiyon qo'shningizni chaqirib bir nafas chaqchaqlashmoqchi bo'lsangiz ham tog'adan izn olmog'ingiz shart. («Shu hamsoyangiz moli mardumxo'rroq, jiyan, hushyor bo'lasiz-da. Kechagi bozor deng, bitta tirraqi echkini otasining narxiga pulladi-ya, noinsof! Tag'in o'zingiz bilasiz, jiyan. Aytdim-qo'ydim. Bobongizning vasiyati»). O'zingiz «bilako'rmang», zinhor-bazinhor. Kasofat bosib, biror yo'rikda u kishim g'ofil ish tutsangiz bormi, hech ikkilanmay, tog'amiz endi yo'q, deyavering. Araz, yuzko'rmaslik. Tog'aning nutqidan uning xasadchi insonligini ko'rishimiz mumkin. Tog'a bilan yarashish ham juda qiyin. Oraga odam qo'yishning foydasi yo'q. "Betingizni qattiq qilib o'ziingiz borsangiz «Hay, o'zingiz bilasiz, hay, yo'lingizni bersin»lab turaveradi sovuqqinasiga. Oxirida zo'r-bazo'r yumshagan bo'ladi. «Har ishning rasmi bor-da, jiyan», deydi xuddi qarz bergandek qilib. Rasmi shuki, uch-to'rt kishini uyga chaqirasiz, tog'ani esa shaxsan borib taklif etasiz. Bitta qora qo'yning, bir necha «oq qo'y»ning boshini olib... yarash oshi! Boshqasi hisobmas

— rasmi shu".[4] Bu o'rinda qahramonning o'ta obro'parast va "maydakash" kishiligini ko'ramiz. Bu qahramon maktabda mehnatdan dars beradi. Lekin ba'zi o'rinlarda uning o'qituvchilik kasbiga yarashqli emasligi achinarli holat. Negaki, har to'rt odam to'plangan joyda naql qiladigan Bulg'oriyada uni domla deb chaqirishgani ham g'irt safsata, balki sayohatga chiqqani ham yolg'ondir. Shu o'rinda yana bir qahramon xususida so'z ochish kerak. Bu - Amir. Yozuvchi bu qahramonga "Amir bo'lamiz — ko'ngli ochiq, qo'li ochiq, aksariyat savdo ahliga xos kirishimli, sal narsaga yon beruvchi hamiyatli yigit. U menga juda mehribon, «bo'lajonim»lab boshiga ko'taradi. Bolalikdan birga o'sib, biror marotaba janjallashmaganmiz. Qisqasi, xudo berganini birodarlari bilan bo'lishadigan hotamtov, muruvvatli inson" deya tarif beradi.

MUHOKAMA

Yozuvchining mahoratiga shu o'rinda yana bir bora tan bermasdan ilojimiz yo'q. Sababi, yuqoridagi ikki xarakterli insonlarni bir-biriga bo'lgan munosabati o'ta qiziqarli. Bolalikdan bu ikki qahramon o'rtasida boshlangan bu ziddiyatning mohiyati hatto yozuvchiga ham noma'lum. Yozuvchi bu haqida shunday yozadi:"Bu, tabiatan bir-birini xush qo'rmaslik — iqi suymaslikmi yoki arziyas bir narsadan boshlangan bolalik arazining tobora chuqurlashib adovat chohida aylanganimi, ishqilib, men bilmayman, bilmayman. Bobomizning kenjatoy-erkatoyi xarxashayu janjal evaziga boshqalardan undirgan neki narsasi bo'lsa menga ilingani ilingan edi, «o'gay» jiyan — Amirga esa odatdagi yovqarashdan o'zga hech vaqo yo'q". Bunday paytlarda yosh bolaning qanday ahvolga tushishini siz ham tasavvur qilgandirsiz. Yana hech bir sababsiz. Ammo Amir ko'zlari yoshlanib "iljayib" turishidan uning g'ururli ekanligini anglab olamiz. Vaqt o'tib ulg'ayishganda esa Amir tog'asining "ayirmachiligi"ga beparvo, "sho'xchan ko'z qisib" qo'ya qoladi. Tog'asiga esa andak kinoya aralash, andak pichingu istehzo bilan muomala qiladigan bo'ladi. Endi esa ahvol shu darajaga borganki, bu ikki qahramon esini tanib qolgan farzandlari bo'lishiga qaramasdan kimo'zarga musobaqalashayotgandek. Bunday vaziyatlarni Toshkentga to'yga kelishda-yu uy qurish mojarolarida ham ko'rishimiz mumkin.

XULOSA

Hikoyani o'qir ekanmiz, asar qahramonlari, voqealar ko'z oldimizda jonli gavdalanadi. Hikoyaning deyarli har bir o'rnida kinoya, o'tkir kulgini ko'rishimiz mumkin. Bolalikdan jiyan bilan pinhona musobaqalashgan tog'a endi "sayqali zamin" Samarqanddagi dong'i ketgan savdo o'qishlarini bitirib, yog'li-yog'li joylarda ishlab qishloqda har qanaqa shahardagidan qolishmaydigan dabdabali imoratlar solib, amir Olimxondek davr surib yashayotgan, shu kunlarda ayniqsa oshig'i olchi turib, tijorat orqasidan dunyo kezib yurgan" jiyaniga hasad qiladigan bo'ladi. Uy qurganda ham Amirnikidan zo'r qilib "qasr" qurishga kirishadi. Bunday illat, albatta, insonni ichdan yemiradi, uning qalbini qoraytirib yuboradi. Bu holatni "tog'a"da ham ko'rishimiz

mumkin. U jiyanini soldirgan bahavo shiyponda boshqalar qatori dam ololmaydi. Jiyanining "gilamiga o'tirguncha tarqon yerga, zaxga o'tirish" unga ma'qul. Xalqimizda "Baxilning bog'i ko'karmas" iborasining borligi bejiz emas. Bu turdagi insonlar hayotdan zavq olish o'rniga o'zgalarning aybini sanab o'zlarini ovutadi, o'zgalarning tashvishidan quvonadi. Bu hikoyada ko'plab biz ibrat olishimiz kerak bo'lgan o'rinlar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Shavkat Mirziyoyev Miromonovich.2022-yil 20-dekabrdagi Murojaatnomasi
- 2.Fitrat. "Adabiyot qoidalari". T., 1995, - 20-bet
- 3.Izzat Sulton. "Adabiyot nazariyasi". T.- "O'qituvchi". 2005, - 75-bet
- 4.Erkin A'zam.Erkin A'zam Hikoyalar. www.ziyouz.com. 2008. -10-bet